



**XORAZM VILOYATIDAGI KORXONA
VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI
BO'YICHA MA'LUMOT**

*2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)


| | | | |
|--|--|---------------|----------------|
| | Ro'yxatdan o'tgan korxonalar | 22 170 | 120,2 % |
| | Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar | 20 209 | 115,8 % |
| | Yangi tashkil etilgan korxonalar (2020-yilda) | 2 886 | 89,3 % |

Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vegar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamanagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lamanagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2020- yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2020- yil yanvar-iyun oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020- yilning yanvar-iyun oylarida 2 886 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 418 ta, oilaviy korxonalar – 884 ta, xususiy korxonalar – 483 ta, muassasalar – 26 ta va boshqalar – 75 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- iyul holatiga ko'ra 3 454 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 238 taga yoki 55,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 122 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 994 taga yoki 46,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 884 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23 taga yoki 2,5 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- iyul holatiga ko'ra 9 642 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 856 taga yoki 23,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 8 775 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 421 taga yoki 19,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 418 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 82 taga yoki 6,1 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

| | 2016- yil | 2017- yil | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|--|-----------|-----------|-----------|------------|------------|
| Jami | 34 | 47 | 52 | 111 | 155 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 2 | 2 | 1 | 11 | 22 |
| Sanoat | 23 | 30 | 36 | 58 | 60 |
| Qurilish | 3 | 4 | 2 | 9 | 23 |
| Savdo | 3 | 6 | 8 | 21 | 30 |
| Tashish va saqlash | 0 | 1 | 1 | 5 | 1 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 3 | 3 | 3 | 3 | 8 |
| Axborot va aloqa | 0 | 0 | 0 | 1 | 1 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 0 | 0 | 1 | 1 | 4 |
| Boshqa turlar | 0 | 1 | 0 | 2 | 6 |

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

| | 2016- yil | 2017- yil | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|--|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|
| Jami | 5 385 | 5 766 | 6 027 | 7 354 | 8 775 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 597 | 634 | 683 | 840 | 1 365 |
| Sanoat | 860 | 1 055 | 1 082 | 1 320 | 1 396 |
| Qurilish | 878 | 921 | 961 | 1 067 | 1 255 |
| Savdo | 1 599 | 1 751 | 1 857 | 2 365 | 2 685 |
| Tashish va saqlash | 381 | 411 | 451 | 510 | 565 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 165 | 193 | 178 | 219 | 235 |
| Axborot va aloqa | 75 | 90 | 76 | 87 | 99 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 63 | 73 | 92 | 120 | 155 |
| Boshqa turlar | 767 | 638 | 647 | 826 | 1 020 |

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

| | 2017- yil | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|--|------------|--------------|--------------|--------------|
| Jami | 762 | 1 014 | 2 128 | 3 122 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 98 | 102 | 309 | 420 |
| Sanoat | 216 | 279 | 584 | 826 |
| Qurilish | 14 | 19 | 19 | 30 |
| Savdo | 154 | 217 | 512 | 891 |
| Tashish va saqlash | 4 | 4 | 11 | 17 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 168 | 271 | 518 | 659 |
| Axborot va aloqa | 12 | 11 | 20 | 22 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 7 | 10 | 15 | 38 |
| Boshqa turlar | 89 | 101 | 140 | 219 |

Tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining asosiy qismi Urganch shahri (4 515 ta), Urganch tumani (2 207 ta), Xiva shahri (1 729 ta), Xonqa tumani (1 625 ta) va Qo‘shko‘pir tumani (1 397 ta) hissasiga to‘g‘ri keladi.


**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

| | Jami | <i>shundan:</i> | |
|------------------------|------------|-----------------|-----------------|
| | | qo'shma korxona | xorijiy korxona |
| Xorazm viloyati | 155 | 96 | 59 |
| Urganch sh. | 47 | 31 | 16 |
| Xiva sh. | 16 | 10 | 6 |
| tumanlar: | | | |
| Bog'ot | 8 | 7 | 1 |
| Gurlan | 5 | 4 | 1 |
| Qo'shko'pir | 6 | 4 | 2 |
| Urganch | 21 | 7 | 14 |
| Hazorasp | 2 | 1 | 1 |
| Tuproqqa'l'a | 6 | 2 | 4 |
| Xonqa | 8 | 5 | 3 |
| Xiva | 11 | 5 | 6 |
| Shovot | 10 | 8 | 2 |
| Yangiariq | 6 | 4 | 2 |
| Yangibozor | 9 | 8 | 1 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Urganch shahrida 47 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 30,3 %), Urganch tumani 21 ta (13,5 %), Xiva shahri 16 tani (10,3 %), Xiva tumani 11 ta (7,1 %), Shovot tumani 10 ta (6,5 %), Yangibozor tumani 9 ta (5,8 %) hamda Bog'ot tumani 8 tani (5,2 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Urganch shahri (23,0 %), Urganch tumani (10,8 %), Xiva shahri (8,7 %), Xiva tumani (8,1 %), Xonqa tumani (7,7 %), Qo'shko'pir tumani (6,8 %), Gurlan tumani (6,5 %), Yangiariq tumani (5,8 %), Bog'ot tumani (5,5 %), Hazorasp tumani (5,2 %), Shovot tumani (5,1 %), Yangibozor tumani (4,7 %) va Tuproqqal'a tumani (2,1 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Urganch shahrida (14,9 %), Qo'shko'pir tumani (10,2 %), Gurlan tumani (9,2 %), Urganch tumani (9,1 %), Yangibozor tumani (8,4 %), Xonqa tumani (7,7 %), Bog'ot tumani (7,6 %), Xiva shahri (7,5 %), Xiva tumani (6,6 %), Yangiariq tumani (5,8 %), Shovot tumani (5,4 %), Hazorasp tumani (4,2 %) va Tuproqqal'a tumani (3,4 %) ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning tumanlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Urganch shahrida (22,0 %), Urganch tumani (10,2 %), Xiva shahri (9,4 %), Xiva tumani (8,5 %), Hazorasp tumani (7,9 %), Yangiariq tumani (7,5 %), Gurlan tumani (6,8 %), Xonqa tumani (6,3 %), Qo'shko'pir tumani (5,8 %), Bog'ot tumani (5,5 %), Shovot tumani (4,2 %), Tuproqqa'l'a tumani (3,3 %) va Yangibozor tumani (2,6 %) hissasiga tegishli.

Tumanlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqt-i-vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275-sон qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The top navigation bar includes links for RSS feed, Bayroq (Flag), Gerb (Coat of Arms), Madhiya (Madhiya), Shaxsiy kabinet (Personal Cabinet), and UZSTAT logo. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". Below the title, there are language links: Ozbek, Russian, English. The main menu includes ASOSIY SAHIFA, QO'MITA HAQIDA, AXBOROT XIZMATI, INTERAKTIV XIZMATLAR, OCHIQ MA'LUMOTLAR, MUROJAATLAR, and KONTAKTLAR. A sidebar on the left titled "RASMIY STATISTIKA" lists various statistical services like E'on qilish taqvimi, Metamalumotlar, Makroko'rsatkichlar, Milliy hisoblar, Narx va indekslar, Investitsiyalar, Qurilish, and Tashqi iqtisodiy foyliyat. The central search interface allows users to enter a STIR number and search for it. To the right, a list of "FOYDALI MA'LUMOTLAR" is provided, including Aholini ro'yxtaga olish-2022, Harakatlar strategiyasi, Press-relizlar, Choraklik natijalar, Nashrlar – statistika haqida, Usulby materiallar, and Sanoat mansulotlari ishlab chiqaruvchilar.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:62 224-65-11**